

O‘ZBEKISTONDA KICHIK VA O‘RTA BIZNESNI MOLIVAVIY QO‘LLAB-QUVVATLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

Umarova Irodaxon Nuraliyevna

Alfraganus universiteti NOTT, Menejment va marketing kafedrası katta o‘qituvchisi

E-mail: irodaumarova168@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, respublikamiz iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan o‘zgarishlar hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarining tizimini takomillashtirish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: kichik va o‘rta biznes, tadbirkorlik, moliyaviy qo‘llab-quvvatlash, hisob, tizim.

Аннотация

Данная статья приведена информация о поддержке развития малого и среднего бизнеса, изменения в экономике нашей республики, высоком предложении субъектов малого и частного предпринимательства.

Ключевые слова: малый и средний бизнес, предпринимательство, финансовая поддержка, учет, система.

Abstract

This article provides information about support for the development of small and medium-sized businesses, changes in the economy of our republic, and the high supply of small and private businesses.

Keywords: small and medium-sized businesses, entrepreneurship, financial support, accounting, system.

KIRISH

O‘zbekiston respublikasida kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, ularning faoliyatida kelib chiqayotgan muammo va to‘siqlarni bartaraf etish bo‘yicha kompleks choralar ko‘rilib, sohani rivojlantirish va uning huquqiy himoyasini ta‘minlash borasida barcha zarur tashkiliy va huquqiy mexanizmlar yaratilmoqda.

Mamlakatida tadbirkorlikni rivojlantirish, biznes yuritish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, tadbirkorlik faoliyatiga qaratilgan har qanday to‘siqlarga murosasiz bo‘lish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar jadal olib borilmoqda. Bu borada tadbirkorlarni huquqiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, biznesni yuritishda ular bilan birgalikda mavjud muammolarni hal qilish yuzasidan davlat organlari mas‘uliyati oshirilib, ular uchun qator yangiliklar, qulayliklarni o‘z ichiga olgan ko‘plab me‘yoriy hujjatlar qabul qilingan [1].

Biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimida asosiy bo‘g‘inlardan biri bo‘lgan Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasining amaldagi tashkiliy-huquqiy shakli tadbirkorlik subyektlariga yetarlicha yordam ko‘rsatish, yangi xizmat turlarini joriy etish, xalqaro moliya institutlaridan to‘g‘ridan-to‘g‘ri mablag‘ jalb etish imkoniyatini bermaydi.

Biznes boshlashda eng qiyini moliyaviy yordamdir, chunki xavflar juda yuqori. Davlatimiz rahbari ham Prezidentlik faoliyatining ilk kunlaridayoq biznesni har

tomonlarga qoʻllab-quvvatlash, ularning samarali faoliyat koʻrsatishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratishga katta eʼtibor qaratdi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mavzu doirasida koʻplab xorijiy va mahalliy mutaxassis olimlar ish olib borishgan boʻlib, ularning tadqiqotlari “biznesmen” tushunchasiga berilgan turli yondashuvlar boʻyicha faoliyat olib borilganligini koʻrsatadi. Jumladan, “biznesmen” tushunchalari iqtisodiy faoliyat sohalari koʻrilayotganda maʼnodosh hisoblanmaydi. “Biznes” tushunchasi “tadbirkor”dan ancha torroq maʼnoga ega deb qaraladi. Gʻarb davlatlarining bozor iqtisodiyoti haqidagi adabiyotlarida “biznes” — jamiyatning talab va xohishlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarish tizimi” deb tushuntiriladi.

Iqtisodchi olim X. Abulqosimov “biznes” tushunchasiga quyidagicha taʼrif bergan: “Biror faoliyat yuzasidan boʻlgan munosabat, aniqrogʻi, ishbilarmonlarning iqtisodiy munosabatidir. Keng maʼnosi — qonuniy yoʻl bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir”. Ushbu taʼriflarni qiyosiy oʻrganish va tahlil qilish natijasida shunday xulosaga kelindiki, ularda tadbirkorlikning ichki mohiyatini ochib beruvchi bir qator yondashishlar mavjud boʻlib, bular bozor iqtisodiyoti talablariga ham mos keladi.

Biznes (inglizcha –business) –tavakkalchilik va oʻzining javobgarligi ostida xususiy yoki qarzga olingan vositalari hisobidan amalga oshiriladigan, asosiy maqsadi foyda olish va oʻz faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan tashabbuskor iqtisodiy faoliyatdir.

Soʻnggi yillarda kichik va oʻrta biznesni moliyaviy qoʻllab-quvvatlashga doir koʻplab qonun, farmon va qarorlar qabul qilindi. Ularga asosan, ortiqcha tekshirishlar, naqd pul, valyuta va xomashyo boʻyicha koʻplab cheklovlarga barham berildi. Yurtimizda tadbirkorlarga yaratilayotgan sharoitlar, berilayotgan imkoniyatlar tufayli yangi subyektlar keskin koʻpayib, avvaldan ishlayotganlari oʻz faoliyatini yanada kengaytirdi.

Bir vaqtlar odamlar biznes qilishga qoʻrqib qolgan, oʻzining biznes vakili ekanini yashiradigan davrlarni ham koʻrdik. Mamlakatimizda chinakam tadbirkor qiyofasi, haqiqiy ishbilarmonlik muhiti Yangi Oʻzbekistonda shakllandi, desak mubolagʻa boʻlmaydi [2].

TAHLIL VA NATIJALAR

Biznesda xususiy tadbirkorlarning xomashyo resurslaridan foydalanish imkoniyati, birinchi navbatda, bunday mahsulotlarni birja va yarmarka savdolarida sotish hajmini koʻpaytirish hisobidan sezilarli ravishda kengaytirildi. Masalan, kichik va oʻrta biznesni hamda xususiy tadbirkorlik subʼektlari tomonidan 3,3 trillion soʻmlik xomashyo va materiallar sotib olindi, oʻsish 6,5 foizni tashkil etdi. Bitimlarning 95 foizi birja savdolariga toʻgʻri keldi Shu bilan birga, tadbirkorlik subʼektlari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni birja orqali sotish hajmi 18 foizga oʻsib, 1,4 trillion soʻmga etdi. Birjada tuzilgan bitimlarning umumiy hajmida tadbirkorlar va kichik biznes subʼektlarining hissasi oʻtgan yilda

66 foizni tashkil etgan bo'lsa, joriy yilda bu ko'rsatkich 8 foizga ko'tarilgani kuzatildi[4].

Jahonda davom etayotgan iqtisodiy inqirozga qaramay, O'zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari ta'minlanayotganligi qayd etildi. O'zbekistonda iqtisodiyoti jadal rivojlanayotgan davlatlar orasida jahonda beshinchi o'rinni egallab turganligi va bu xalqaro hamjamiyat va xalqaro moliya institutlari tomonidan munosib ravishda yuqori baholanmoqda. 2024-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha mamlakatning yalpi ichki mahsuloti 8,0 foizga o'sdi.


Jahon amaliyotida hali katta va kichik korxonalarni ajratib beruvchi yagona mezon o'rnatilmagan. Hozirgi vaqtda bir-biridan ajratuvchi alohida belgilarini aniqlash korxonalarining muhim sohalari bo'yicha umumlashma belgilari katalogini bunyod etish orqali amalga oshirilmogda. Bu borada jamoa, shirkat, oilaviy, xususiy korxonalar, firma va boshqa yuridik maqomiga ega bo'lgan korxonalar ham o'rta korxonalar qatoriga kiritilishi mumkin. XX asrning so'nggi choragida kichik biznes subyektlari yuqori sur'atlarda rivojlana bordilar va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omillaridan biriga aylandilar. Bugungi kunga kelib, rivojlanmagan kichik businessiz zamonaviy iqtisodiyotni tasavvur etib bo'lmaydi. U bir tomondan, qandaydir darajada yirik korxonalar bilan raqobatda bo'lib, shu nuqtayi nazardan iqtisodiyotni bozor konyunkturasi o'zgarishlariga moslashishga, voqelikni tez-tez almashib turishiga va iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan qayta qurish imkoniyatini yaratadi. Ikkinchi tomondan, kichik korxonalarining katta qismi yirik biznes bilan hamkorlik qiladi, ularga xos bo'lgan texnik konservatizmni bartaraf etishga ko'maklashadi. Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish bozorni iste'mol tovarlari bilan to'ldirishga, hududiy monopolizmga barham berishga, raqobat muhitini shakllantirishga, ilmiy-texnika natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishga va eksport salohiyatini yuksaltirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3, 5].

Kichik va o'rta biznesning yana bir xususiyati — nisbatan kam xarajatlar evaziga yangi ish o'rinlari yaratish va shu orqali bandlik muammosini hal etishga hissa qo'shishdir.

Shu bilan birga, kichik va o'rta biznesni turli ijtimoiy guruhlar daromadlari o'rtasidagi tafovutlarni qisqartirishga, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni sarmoyadorlik darajasi yuqori bo'lgan sohalarga yo'naltirishga, aholi daromadini oshirishga hamda iqtisodiyotning turli sektorlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishga o'z hissasini qo'shadi.[4]

Kichik va o'rta biznesning subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning manbalaridan biri bu — xalqaro moliya tashkilotlari va chet el banklari tomonidan ajratilayotgan mablag'lar hisobidan ochilayotgan kredit liniyalari hisoblanadi. Hozirgi kunda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda, kichik va o'rta biznes korxonalarida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirishda xorijiy kredit liniyalari katta ahamiyatga ega. Chunki eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish uchun kichik va o'rta biznes korxonalarini ishlab chiqarishga eng yangi texnika va texnologiyalarni joriy etishi zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 14-sentyabrdagi PQ-306-son “Kichik biznesni rivojlantirishni moliyaviy va institutsional qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorining 2-ilovasida “Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash” kompleks dasturida ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini shaffoflik tamoyillari asosida tanlab olish tartib-taomillari sxemasi” yoritilgan. Dasturda ishtirok etuvchi kichik tadbirkorlik subyektlarini shaffoflik tamoyillari asosida tanlab olish tartib-taomillarida qo‘llab quvvatlashga barcha ishtirokchi subyektlarga aniq vazifalar belgilab berilgan.



1-rasm. Kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash tamoyillari¹

Yuqoridagi rasmda ko‘rinib turibdiki kichik biznesni uzluksiz qo‘llab-quvvatlash tamoyillarini yurtboshimiz qarorlarida aniq ishlash sxemasi yoritib o‘tilgan. Agar ushbu tamoyillar belgilangan tartibda ishlasa mamlakatimizda biznesning rivojlanishi yuqori pag‘onalarga ko‘tarilishi aniq.

Strategik islohotlar agentligi tomonidan kichik va o‘rta biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash masalalari o‘rganish natijasida kichik va o‘rta biznesni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha quyidagi qo‘shimcha takliflar ishlab chiqildi [1, 2]:

Hududlarda kichik va o‘rta biznes sohasini izchil rivojlantirishga mas‘ul bo‘lgan yagona davlat organini belgilash.

Malayziya va Turkiyaning kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish tajribasini o‘rganish va ushbu mamlakatlar Kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish agentliklari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish.

Soliq imtiyozlarini inventarizatsiyadan o‘tkazish va individual, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lmagan imtiyozlarni bekor qilish.

Kichik va o‘rta biznesga imtiyoz va preferensiyalar, subsidiyalar berishda Malayziya, Turkiya tajribasini o‘rganib chiqish va muayyan shart va mezonlar asosida berishni joriy qilish.

Xususiylashtirish jarayonini faollashtirish, har bir davlat korxonasi faoliyatining maqsadga muvofiqligini o‘rganish va xususiy sektor mavjud bo‘lgan sohalarda ularni sotish.

¹ Muallif ishlanmasi

Naqdsiz iqtisodiyotga o'tish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va amalga oshirish.

Mamlakatimizga PayPal (yoki Stripe) to'lov tizimini olib kirish borasidagi muammolarni o'rganib (Markaziy bank), xalqaro to'lov tizimlarini mamlakatimizga jalb qilish borasida muzokaralar o'tkazish.

Nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish maqsadida:

– mediatsiya tartibida erishilgan va notarius tomonidan tasdiqlangan mediativ kelishuvlarni notariuslarning ijro xatlariga asosan qarzni undirish so'zsiz amalga oshiriladigan hujjatlar ro'yxatiga kiritish;

– biznes vakillari o'rtasida mediatsiya institutining afzalliklari va jozibadorligini keng ommalashtirish bo'yicha Adliya vazirligi tomonidan Biznes-ombudsman va Savdo-sanoat palatasi bilan hamkorlikda hududlar kesimida targ'ibot-tashviqot dasturini ishlab chiqish.

AQSHning SCORE tizimi tajribasi asosida o'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga masofaviy tarzda va interaktiv shaklda biznesda muvaffaqiyatga erishgan biznes vakillari tomonidan biznes maslahatlar berish imkoniyatini beruvchi "biznesni yaratish bo'yicha onlayn gid" tamoyili asosida ishlaydigan axborot platformani yaratish. O'z biznesini boshlamoqchi bo'lgan fuqarolarga biznesni boshlash va yuritish ko'nikmalari bo'yicha bilimlarni masofaviy tarzda berish amaliyotini joriy qilish.

Xalqaro moliya institutlarining moliyaviy-texnik ko'magini jalb etgan holda bankrotlikni kamaytirish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarini yanada takomillashtirish, sud boshqaruvchilari faoliyatini qayta ko'rib chiqish, to'lovga qobiliyatsiz holatidagi tadbirkorlik subyektlarini sog'lomlashtirish bo'yicha ta'sirchan mexanizmlarini ishlab chiqish.

Biznes-ombudsman, Raqobat qo'mitasi, Bosh prokuratura, Raqamlashtirish vazirligi xodimlari tarkibida Adliya vazirligida ruxsat etish tartib-taomillarini qayta ko'rib chiqish shtabini tuzish. Bunda, shtabda quyidagilar amalga oshiriladi: tegishli vazirlik va idoralar vakillarini jalb qilgan holda amaldagi ruxsat etish tartib-taomillarini to'liq qayta ko'rib chiqish, shu jumladan ularni raqamlashtirish, soddalashtirish, xavf tahlili tizimini joriy etish, talab va shartlarga rioya etilishi ustidan masofaviy monitoring qilish imkoniyatlarini yaratish hamda yangi tartib-taomillarni joriy etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish; har soha bo'yicha tadbirkorlik subyektlari uchrashuvlarini o'tkazish, muammolarni o'rganish hamda ularni bartaraf qilish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Ushbu qo'shimcha takliflar natijasida kichik va o'rta biznes qo'llab-quvvatlansa mamlakatimiz jahonda rivojlangan davlatlar qatoriga kirishi va tadbirkorlik subyektlarini o'sib borishiga zamin yaratishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish nafaqat davlat va jamoat taraqqiyotida, balki har bir insonning yuksalib borayotgan hayotiy ehtiyojlarini qondirishda muhim

ahamiyatga ega, ya'ni xizmat ko'rsatish, chakana savdo, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish kabi sohalarda ushbu faoliyat yaqqol namoyon bo'ladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali:
o'rta mulkdorlar sinfi shakllanadi;

makroiqtisodiy beqarorlik, ishsizlik va taqchillik kabi iqtisodiy muammolar barham topadi;

sog'lom raqobatchilik muhitining yaratilishi orqali YAIMning miqdor va sifat jihatidan o'sishi kuzatiladi;

ichki bozor zarur tovar (xizmat)lar bilan to'yinadi va ularning sifati oshadi;
pirovardida aholi turmush darajasining o'sishiga erishiladi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga oid qonunchilik hujjatlarini barqarorlashtirish, davlatning biznes sohasiga aralashuvini keskin kamaytirish, shuningdek, biznes huquqi sohasida yagona yondashuvni belgilash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-noyabrdagi PF-193-son "**Kichik va o'rta biznesni moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida**"gi Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-6658633>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг **Олий Мажлис ва Ўзбекистон Халқига Мурожаатномаси**. "Халқ сўзи" газетаси, 2022 йил 21 декабр, № 272 (8334).
3. J.T. Askarov. **Biznes huquqi**. O'quv qo'llanma. -T.: TDYU. 2024. – 216 b.
4. Nurullayeva Shaxnoza Toxtasinovna. **O'zbekiston hududlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish yo'llari**. Marketing ilmiy, amaliy va ommabop jurnal. 191-200 b. № 9. 2024.
5. Obidov Mashhad Ismoiljon o'g'li. **Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining moliyaviy resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish**. "PEDAGOGS" international research journal ISSN: 2181-4027_SJIF: 4.995. Volume-14, Issue-2, July – 2022.



2024-yil, oktabr. №8-son

Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Salixova Nodira Maksudovna

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Karimova Shirin Zoxid qizi

2024-yil, oktabr, 8-soni

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin.

Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournaltbot](https://t.me/marketinjournaltbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**.
ГОСТ 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi"
davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**